TOSHKENT VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2021- YIL YANVAR- NOYABR*
*(DASTLABKI MA'LUMOT)*



Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: 71-202-86-66

# Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 73,0 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,5 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,1 %ni  hamda ishlab chiqarish hajmi 64,3 trln. so'mni tashkil etdi.




***B*** *– Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C*** *- Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D*** *- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,* ***E*** *- Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *%da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 12,0 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 5,5 %ga o'sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,8 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,9 %ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-noyabr oylarida, %da)*







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *%da*

**Ko‘mir**




**Kaolin**




**Tabiiy gaz**




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Ko‘mir**, *ming t.* | 3468,8 | 4385,3 | 916,5 |
| **Chaqiq tosh**, *ming t.* | 349,8 | 450,6 | 100,8 |
| **Shag‘al** , *ming t.* | 38,6 | 3,1 | -35,5 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Kaolin**, *ming t.* | 351,8 | 366,5 | 14,8 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,3 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,1 %ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**, *(yanvar-noyabr oylarida, %da)*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 %ni (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – 1,6 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 9,5 % (12,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 61,0 % (56,8 %) va quyi texnologiyali – 14,6 % (13,7 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,3 % (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 48,2 % (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,8 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,4 % (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,9 % (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,9 % (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,8 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 135 ming dona avtomobil dvigitellari (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 35,8 %ga kamaygan), 36,1 ming tonna kalava ip (25,4 %ga kamaygan), 134,6 mln. litr pivo mahsulotlari (7,1 %ga kamaygan) hamda 316,6 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (1,9 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Pishloq va tvorog**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**




**Sement**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Avtomobil dvigatellari,** *ming dona* | 210,4 | 135,0 | -75,4 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** *ming t.* | 310,2 | 316,1 | 5,9 |
| **Paxta tolasi,** *ming t.* | 31,2 | 39,4 | 8,2 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan),** *ming t.* | 5,7 | 4,3 | -1,5 |
| **Portlandsement,** *ming t.* | 4566,5 | 4815,7 | 249,2 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan etil spirti (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga 101,2 %) mahsulotida o'sish ko'rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 96,1 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.

**O'tgan yilning mos davriga nisbatan,** *%da*

**Ammoniy sulfat** | **Ammoniy nitrat** | **Etil spirti**



## Metallurgiya sanoati

*(yanvar-noyabr)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 48,2 %ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 11,8 %ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 31181,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-noyabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,3 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 8,3 %ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 8 357,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-noyabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,4 %ni tashkil etgan, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,4 %ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 5405,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.









## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-noyabr oylarida)*









Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,5 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 21,5 %ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 3314,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

# To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-noyabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,9 %ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 118,9 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 4330,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






# Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-noyabr oylarida)*






2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 %ni, fizik hajm indeksi esa 121,4 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 1733,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-noyabr oylarida)*

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 95,9 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 3570,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-noyabr oylarida)*







2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 85,5 %ni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 56,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*(yanvar-noyabr oylarida)*

FHI %da






2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,4 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 4625,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-noyabr oylarida)*

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 25,0 %ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 1489,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



FHI %da



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-noyabr oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,6 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (7,7 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,5 %ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-noyabr oylarida, %da)*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 15894,4 | 14573,9 | -1320,5 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 3467,0 | 3476,3 | 9,3 |
| **Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan** gaz, *ming kub. m.* | 282201,0 | 244174,0 | -38027,0 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-noyabr oylarida*







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-noyabr oylarida, %da)*







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-noyabr | 2021- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | 34,0 | 53,4 | 19,4 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlar,** *mln. so‘m* | 83,5 | 141,4 | 57,8 |

O‘tgan yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarida 69,2 %ga o‘sish kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 15,9 trln. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 118,5 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 21,8 %ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 13,0 % (2020- yil yanvar-noyabr oylarida 18,3 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to‘g‘ri kelib 18,9 %ni, shuningdek, Ohangaron shahri - 9,1 %ni, Qibray tumani - 10,7 %ni, Angren shahri - 7,2 %ni hamda Chirchiq shahri - 10,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (118,5 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Bekobod (165,4 %), Chirchiq (123,5 %) shahlarida hamda Quyi Chirchiq tumanida (128,2 %) qayd etildi.

### Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021-yilning yanvar-noyabr oylarida*



| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi %da* | *O‘sishi %da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **15 942,1** | **100** | **118,5** |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Nurafshon | 203,5 | 1,3 | 107,8 |
| Olmaliq | 398,4 | 2,5 | 125,7 |
| Angren | 1 154,6 | 7,2 | 110,3 |
| Bekobod sh. | 273,0 | 1,7 | 165,4 |
| Ohangaron sh. | 1 458,5 | 9,1 | 105,8 |
| Chirchiq | 1 597,7 | 10,0 | 123,5 |
| Yangiyo‘l sh. | 368,0 | 2,3 | 104,7 |
| Oqqo‘rg‘on | 498,4 | 3,1 | 134,1 |
| Ohangaron | 142,5 | 0,9 | 108,2 |
| Bekobod | 162,5 | 1,0 | 102,3 |
| Bo‘stonliq | 708,3 | 4,4 | 145,3 |
| Bo‘ka | 139,0 | 0,9 | 120,4 |
| Zangiota | 3 016,7 | 18,9 | 137,6 |
| Yuqori Chirchiq | 722,5 | 4,5 | 110,1 |
| Quyi Chirchiq | 270,7 | 1,7 | 128,2 |
| Qibray | 1 707,5 | 10,7 | 117,1 |
| Parkent | 281,1 | 1,8 | 121,7 |
| Piskent | 283,1 | 1,8 | 113,6 |
| O‘rta Chirchiq | 423,1 | 2,7 | 112,6 |
| Chinoz | 298,3 | 1,9 | 83,5 |
| Yangiyo‘l | 634,0 | 4,0 | 114,2 |
| Toshkent | 1 200,5 | 7,5 | 103,6 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmidagi eng yuqori ulush Chirchiq shahriga to‘g‘ri kelib 16,1 %ni, shuningdek, Ohangaron shahrida - 13,3 %ni, Qibray tumanida - 5,4 %ni, Toshkent tumanida - 9,6 %ni, Zangiota tumanida - 9,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Bekobod (190,7 %) hamda Chirchiq shaharlarida (139,0 %) qayd etildi

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 8 087,3 | 100 | 123,8 |
| Nurafshon | 144,6 | 1,8 | 115,2 |
| Bo‘ka | 79,8 | 1,0 | 130,4 |
| Olmaliq | 292,4 | 3,6 | 132,3 |
| Zangiota | 767,0 | 9,5 | 122,2 |
| Angren | 591,9 | 7,3 | 128,6 |
| Yuqori Chirchiq | 309,8 | 3,8 | 116,1 |
| Bekobod sh. | 228,8 | 2,8 | 190,7 |
| Quyi Chirchiq | 168,6 | 2,1 | 137,2 |
| Ohangaron sh. | 1 079,4 | 13,3 | 106,1 |
| Qibray | 439,8 | 5,4 | 115,4 |
| Chirchiq | 1 302,3 | 16,1 | 139,0 |
| Parkent | 174,9 | 2,2 | 152,0 |
| Yangiyo‘l sh. | 241,0 | 3,0 | 113,6 |
| Piskent | 82,3 | 1,0 | 110,4 |

| Oqqo‘rg‘on | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 214,3 | 2,7 | 176,6 |

| Ohangaron | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 82,7 | 1,0 | 115,3 |

| Bekobod | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 92,0 | 1,1 | 107,4 |

| Bo‘stonliq | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 166,2 | 2,1 | 110,4 |

| O‘rta Chirchiq | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 250,9 | 3,1 | 127,8 |

| Chinoz | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 182,9 | 2,3 | 93,5 |

| Yangiyo‘l | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 419,0 | 5,2 | 136,5 |

| Toshkent | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 776,8 | 9,6 | 117,4 |

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bekobod (126,0 %), Olmaliq (117,4 %) hamda Ohangaron shaharlarida (109,6 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| Toshkent viloyati | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 7 854,8 | 100 | 113,5 |

| Nurafshon | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 62,7 | 0,8 | 97,7 |

| Bo‘ka | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 60,1 | 0,8 | 110,8 |

| Olmaliq | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 114,8 | 1,5 | 117,4 |

| Zangiota | | |
|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
| 2 167,6 | 27,6 | 140,5 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Angren | 563,1 | 7,2 | 96,5 |
| Bekobod sh. | 53,0 | 0,7 | 126,0 |
| Ohangaron sh. | 412,2 | 5,2 | 109,6 |
| Chirchiq | 343,1 | 4,4 | 93,7 |
| Yangiyo‘l sh. | 132,2 | 1,7 | 94,0 |
| Oqqo‘rg‘on | 280,2 | 3,6 | 113,1 |
| Ohangaron | 60,8 | 0,8 | 101,2 |
| Bekobod | 71,4 | 0,9 | 97,4 |
| Bo‘stonliq | 523,2 | 6,7 | 156,4 |
| Qibray | 1 230,2 | 15,7 | 114,5 |
| Quyi Chirchiq | 100,6 | 1,3 | 111,0 |
| Parkent | 117,4 | 1,5 | 98,2 |
| Piskent | 195,9 | 2,5 | 110,9 |
| O‘rta Chirchiq | 173,0 | 2,2 | 98,4 |
| Chinoz | 119,4 | 1,5 | 72,9 |
| Yuqori Chirchiq | 409,1 | 5,2 | 105,8 |
| Toshkent | 440,5 | 5,6 | 87,3 |
| Yangiyo‘l | 224,4 | 2,9 | 91,0 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-noyabr oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 14,3 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 19,6 %ni tashkil etdi.

## Toshkent viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-noyabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 73024,7 | 100 | 110,5 |
| Nurafshon | 929,0 | 1,3 | 90,6 |
| Bo‘ka | 383,9 | 0,5 | 162,6 |
| Olmaliq | 29438,1 | 40,3 | 112,6 |
| Zangiota | 5833,2 | 8,0 | 103,0 |
| Angren | 4794,3 | 6,6 | 100,5 |
| Qibray | 4488,0 | 6,1 | 109,7 |
| Bekobod sh. | 8537,0 | 11,7 | 112,0 |
| Quyi Chirchiq | 608,7 | 0,8 | 119,1 |
| Ohangaron sh. | 3117,3 | 4,3 | 92,2 |
| Parkent | 417,4 | 0,6 | 106,7 |
| Chirchiq | 4929,7 | 6,8 | 101,0 |
| Piskent | 449,8 | 0,6 | 120,4 |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi %da | O‘sishi %da |
|---|---|---|---|
| Yangiyo‘l sh. | 569,0 | 0,8 | 97,1 |
| O‘rta Chirchiq | 643,3 | 0,9 | 105,8 |
| Oqqo‘rg‘on | 663,1 | 0,9 | 100,8 |
| Chinoz | 555,2 | 0,8 | 98,7 |
| Ohangaron | 480,2 | 0,7 | 104,1 |
| Yuqori Chirchiq | 1468,2 | 2,0 | 101,1 |
| Bekobod | 353,3 | 0,5 | 112,2 |
| Toshkent | 1487,0 | 2,0 | 104,3 |
| Bo‘stonliq | 1578,7 | 2,2 | 105,6 |
| Yangiyo‘l | 1300,2 | 1,8 | 112,2 |

## Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, %da



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Olmaliq (2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 112,6 %), Bekobod (112,0 %), Chirchiq (101,0 %), shaharlarida hamda Quyi Chirchiq tumanida (113,8 %) sezilarli darajada oshdi.

## Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng koʻp ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,3 %) hamda Bekobod (11,7 %), Chirchiq (6,8 %), Angren (4,7 %) va Ohangaron (4,3 %) shaharlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Eng past koʻrsatkich esa Boʻka (0,5 %) hamda Bekobod (0,5 %) tumanlariga toʻgʻri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (219610,5 ming soʻm), Ohangaron (79046,5 ming soʻm) va Bekobod (87646,8 ming soʻm) shaharlarida oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (24456,8 ming soʻm) ancha yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4176,5 ming so‘m bo‘lgani holda, Ohangaron shahrida – 29056,3 ming so‘mni, Zangiota tumanida – 14701,5 ming so‘mni, Qibray tumanida – 8840,6 ming so‘mni, Chirchiq shahrida 7794,3 ming so‘mni tashkil etmoqda.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | 24 456,8 | 4 176,5 |
| Nurafshon | 17 867,2 | 3 070,4 |
| Bo‘ka | 2 994,7 | 849,3 |
| Olmaliq | 219 610,5 | 2 332,2 |
| Zangiota | 36 232,7 | 14 701,5 |
| Angren | 17 788,8 | 4 705,5 |
| Qibray | 26 345,8 | 7 794,3 |
| Ohangaron sh. | 79 046,5 | 29 056,3 |
| Quyi Chirchiq | 5 508,3 | 1 919,3 |
| Bekobod sh. | 87 646,8 | 2 199,4 |
| Parkent | 2 605,9 | 1 391,6 |
| Chirchiq | 30 157,3 | 7 668,7 |
| Piskent | 4 383,2 | 2 164,7 |

| Hudud | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Yangiyo'l sh. | 9 104,6 | 4 628,3 |
| O'rta Chirchiq | 4 871,2 | 2 666,5 |
| Oqqo'rg'on | 6 194,3 | 3 652,7 |
| Chinoz | 4 044,5 | 1 637,1 |
| Ohangaron | 18 983,4 | 1 109,3 |
| Yuqori Chirchiq | 10 907,5 | 3 959,5 |
| Bekobod | 2 208,1 | 794,5 |
| Toshkent | 8 050,2 | 5 096,3 |
| Bo'stonliq | 9 199,7 | 3 237,0 |
| Yangiyo'l | 6 175,4 | 2 359,1 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12,4 trln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,0 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bekobod (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (45,9 %), Parkent (98,4 %), Chinoz (61,2 %), Yuqori Chirchiq (65,4 %) tumanlarida kuzatildi.






Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Olmaliq (1,5 %), Bekobod (2,6 %) va Chirchiq (18,8 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Toshkent viloyatida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 9181 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1274 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 13,9 %) Zangiota tumaniga, 850 tasi (9,3 %) Qibray tumaniga, 785 tasi (8,5 %) Toshkent tumaniga, 475 tasi (5,2 %) Chirchiq shahriga, 457 tasi (5,0 %) Angren shahriga to‘gri kelmoqda.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**
***(2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra)***




2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 1459 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 116 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 8,0 %) Qibray tumanida, 146 tasi (10,0%) Zangiota tumanida, 126 tasi (8,6%) Toshkent tumanida, 82 tasi (5,6 %) Yangiyoʻl tumanida, 80 tasi (5,5 %) Yuqori Chirchiq tumanida tashkil etildi.